

Rayxon Ibragimova*Toshkent davlat yuridik universiteti, Xususiy huquq fakulteti talabasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada guvohlarning daxlsizligi huquqi tushunchasi, uning vujudga kelish asoslari hamda muayyan sohaga doir turlari muhokama qilinadi. Fuqarolik protsessida guvohlik berishda guvohni daxlsizligining mazmuni bo'yicha tadqiqotchi va olimlarning fikrlari bayon etilgan. Guvohning ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqi, shuningdek, ayrim shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishni taqiqlash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar : *daxlsizlik, guvohning immuniteti, ko'rsatma berish.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ НЕПРИКОСНОВЕННОСТИ СВИДЕТЕЛЕЙ В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ

Райхон Ибрагимова*студентка Ташкентского государственного юридического университета,
факультета частного права.*

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие права на неприкословенность свидетеля, основания его возникновения и виды, относящиеся к конкретной сфере. Представлены мнения исследователей и ученых о содержании иммунитета свидетеля при даче показаний в гражданском процессе. Право свидетеля отказаться от дачи показаний, а также вопросы запрета допроса отдельных лиц в качестве свидетелей анализируются с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: неприкословенность, иммунитет свидетеля, свидетельские показания.

CERTAIN ISSUES OF WITNESS PRIVACY IN CIVIL PROCEEDINGS

Raykhon Ibragimova*Student of Tashkent State University of Law, Faculty of Private law.*

Abstract: This article discusses the concept of the right to the immunity of witnesses, the basis of its emergence, and the types related to a specific field. The opinions of researchers and scientists on the content of the witness's immunity in testifying in civil proceedings are presented. The right of the witness to refuse to testify, as well as the issues of prohibiting the questioning of certain persons as witnesses, are analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: inviolability, witness immunity, testimony.

Bilamizki, odil sudlovni faqat sud amalga oshirar ekan, sud protsessida amal qilish lozim bo'lgan qoidalar tizimi mayjud bo'lib, qonunchilik normalari asosida tartibga solinadi. Ahamiyatli jihat shundaki, odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashuvchi shaxslar doirasi ham belgilangan. Ushbu shaxslar yordamida dalil va isbotlash vositalarga aniqlik kiritish va huquqiy asoslantirilgan hal qiluv qarorlarini qabul qilishga muvaffaq bo'linadi. Ushbu shaxslar qatorida guvoh o'ziga xos ahamiyat kasb etishi bilan fuqarolik protsessida muhim o'rinni egallaydi.

Alovida ta'kidlashimiz lozimki, guvoh ko'rsatma berish asosida voqelikka yoki ma'lumotlarga egaligi holatidan kelib chiqib xabar berish ya'ni ko'rsatma berish funksiyasini amalga oshiradi. Muhimi, guvoh qonun doirasida o'z huquq va majburiyatlarini bajarishi guvohning shaxsiy hayoti va kelgusidagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, uning odil sudlovga ko'maklashishi shaxsni xavf ostida qoldirmasligi ham dolzarb masala sanaladi. Aksincha holatda esa, guvohga mutanosib talablarga rioya etilmasligi muammoli masalani hal qilish yoxud qaror qabul qilishda yanglish choralar ko'rinishiga ham olib kelmasligi zarurligini qayd etishimiz darkor. Shu sababdan ham guvoh daxlsizligi, guvohning immuniteti masalalariga alovida yondashgan holda tahlil etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga⁹ binoan, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Ushbu huquqiy asosdan kelib chiqadiki, guvoh ayrim holatlarda guvohlik berishi shart emas. Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga¹⁰ ko'ra, ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi. Shu jumladan, guvoh o'z immunitetiga ega bo'lgan holda muqim statusga ega bo'ladi. Ya'ni guvohning daxlsizligi uning sud protsessidagi ishtiroki uchun huquqiy himoya sifatida namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Maqolada aynan guvohning immuniteti tushunchasiga aniqlik kiritib olishimiz muhimdir.

"Immunitet" atamasi lotin tilidan tarjima qilinganda "bir narsadan ozod qilish" ma'nosini anglatadi. Yuridik ma'noda esa immunitet muayyan qoidalarga bo'ysunmaslikning mutlaq huquqi sifatida talqin etiladi. Guvohlar daxlsizligi instituti sud protsessida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan protsessual kafolatlardan biridir.

"Guvoh immuniteti" atamasi uzoq vaqtadan beri fanga kiritilgan hamda nazariy muomalada bo'lib, yuridik adabiyotda keng qo'llaniladi, ammo unga olimlar tomonidan munosabat va qarashlar noaniq bo'lgan va bugungi kunda aynan fuqarolik protsessida ushbu tushunchaning qonunchilik normasida aks etmasligi bahsli munozarani yuzaga keltiradi.

F. Agayev va V.N. Galuzo¹¹ immunitetni "sud ishini yuritishning maxsus (murakkab) tartibi, Rossiya va chet el fuqarolarining ayrim toifalari uchun sud protsessining umumiyligi tartibidan istisnolar va maxsus huquqiy imtiyozlarni

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi.

¹¹ Агаев Ф.А., Галузо В.Н. Иммунитеты в российском уголовном процессе. – М.: ТЕИС, 1998. 135 с.

belgilashda ifodalangan” deb tushunadi. Bunday imtiyozlar ushbu shaxslarning maxsus huquqiy maqomidan kelib chiqadi. Guvohlarning daxlsizligi muammosiga advokatlar tomonidan katta qiziqish bildirilganiga qaramay, uning mazmuni bo'yicha haligacha konsensus mavjud emas.

V.G. Dayevning fikricha¹², guvohning daxlsizligi ma'lum shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishni taqiqlash va ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqini ham qamrab oladi. Shuningdek, xuddi shunday pozitsiyani N.Y.Volosova qo'llab, u guvohning daxlsizligi “o'ziga, turmush o'rtog'iga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma bermaslik huquqini tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui”¹³ sifatida tavsiflaydi.

D.Y.Xabibullayev fikriga ko'ra, guvohning daxlsizligi faqat shaxsning o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqi sifatida tor ma'noda tushunilmasligi kerak. Qonun ushbu tushunchaga ta'rif berishda sudya, advokat va boshqa shaxslarni so'roq qilishni taqiqlashni ham hisobga olishi darkor. Bu pozitsiyani dalillar nazariyasi sohasida ishlaydigan ko'plab olimlar tasdiqlaydilar¹⁴.

Yuqorida fikrlari bayon etilgan olimlarning qarashlarini tahlil etadigan bo'lsak, guvoh immuniteti guvohning protsessual maqomiga ta'sir qiluvchi vosita ekanligini tushunishimiz mumkin. Guvoh daxlsizligining keng talqiniga amal qiluvchi olim protsessualtlarning pozitsiyasi eng maqbuli bo'lib, buning asosiy sababini guvohlar daxlsizligining mazmuni ikki jihatni qamrab olishi ya'ni bir tomondan, ayrim shaxslarni guvoh sifatida so'roq qilishni taqiqlash to'g'risida; boshqa tomondan, guvoh sifatida ko'rsatma bermaslik yoki ayrim savollarga javob berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasining qonundagi ta'rifidan kelib chiqqan holda.

Ta'kidlashimiz lozimki, immunitet tushunchasini irodani ifodalash xususiyatiga qarab mutlaq va nisbiy turlarga ajratish mumkin. Birinchisi, guvoh maqomiga ega bo'lgan shaxsni so'roq qilish qonuniy taqiqlanganligi sababli guvohning guvohlik berishdan bosh tortish huquqini o'z ichiga oladi (masalan, advokatlarning daxlsizligi).

Ikkinchisiga guvoh bo'lgan shaxsning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatuv berishdan bosh tortish huquqi (masalan, yaqin qarindoshlarning daxlsizligi) kiradi.

A.Y. Yepixin esa guvohlarni tasniflash uchun yana bir asosni taklif qiladi:

- burch bo'yicha daxlsizlikdan foydalanilgan guvohlar;
- o'z huquqi tufayli ko'rsatuv berishdan bosh tortgan guvohlar¹⁵.

Mazkur olimning fikriga ko'ra, guvohning daxlsizligi munosabatlari oilaviy, xizmat va davlat sirlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qayd etadigan bo'lsak, milliy qonuchiligmizda ham fuqarolik protsessida guvohning daxlsizlik huquqidan foydalanishi mumkin bo'lgan asoslар bevosa Fuqarolik protsessual kodeksida to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan. Biz Konstitutsiya

¹² Даев В.Г. Иммунитеты в уголовно-процессуальной деятельности // Известия вузов: Правоведение. 1992. № 3. С. 48–52

¹³ Волосова Н.Ю. Уголовно-процессуальный институт свидетельского иммунитета: теория, законодательное регулирование и практика: автореф. дис. ... д-ра юрид. М., 2015. 62 с.

¹⁴ Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog'liq ayrim masalalar. Yurisprudensiya/ Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal.// 4-son, 2023.

¹⁵ Молчанов В. В. Служебный свидетельский иммунитет в гражданском судопроизводстве // Рос. Юстиция. 2006. № 4. 11 с.

hamda normativ huquqiy hujjatlar asosida qarindoshlar, advokat, diplomatik vakillar kabi shaxslarning daxlsizlik huquqi mavjudligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qiladigan bo'lsak, guvohning daxlsizligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular rasmiy vazifalarni bajarishda ma'lum bir shaxs uchun maxsus himoya darajasini o'z ichiga oladi.

Birinchidan, guvohlarning daxlsizligining huquqiy munosabatlarini ko'rib chiqsak, u huquqiy imtiyozlar toifasiga kiradi va uning muhim tarkibiy qismidir.

Ikkinchidan, biz guvohlarning daxlsizligini tadqiq etgan holda mazkur immunitet qoidalari xalqaro xorij tajribasini o'rgangan holda milly qonunchiligidan aynan fuqarolik protsessida qo'llanishi lozim jihatlarni implementatsiya qilish muhimligini qayd etishimiz mumkin.

Uchinchidan, diplomatik vakillar va konsullik mansabdor shaxslarining guvohlik daxlsizligi bevosita xalqaro hujjatlar va konvensiyalar asosida tavsiflanishini hamda konsullik mansabdor shaxslarining daxlsizlik chegaralari xalqaro talablarga ko'ra belgilanishini bayon etamiz.

Yakuniy xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, guvohning daxlsizligi sud oldida himoya yaratadi, manfaatdor guvohlarning ko'rsatmalari oldida imtiyozlar beradi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, guvoh o'z huquqlarini bilmasligi sababli guvohlarning daxlsizligi ko'pincha buzilishi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2.O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi.

3.Агаев Ф.А., Галузо В.Н. Иммунитеты в российском уголовном процессе. – М.: ТЕИС, 1998.

4.Даев В.Г. Иммунитеты в уголовно-процессуальной деятельности // Известия вузов: Правоведение. 1992. № 3.

5.Волосова Н.Ю. Уголовно-процессуальный институт свидетельского иммунитета: теория, законодательное регулирование и практика: автореф. дис. ... д-ра юрид. М., 2015.

6.Xabibullayev D.Y. Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog'liq ayrim masalalar. Yurisprudensiya/ Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal.// 4-sod, 2023.

7.Молчанов В. В. Служебный свидетельский иммунитет в гражданском судопроизводстве // Рес. Юстиция. 2006.